

## 50-mavzu: [sh] tovushi. Sh sh harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

### Dars maqsadi:

- [sh] tovushining talaffuzi va Sh sh harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;
- soʻzlardan [sh] tovushining oʻrnini aniqlashni oʻrganadilar;
- soʻzni boʻgʻinga boʻlib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

**Tayanch soʻzlar:** qish, hafta kunlari, [sh] tovushi ishtirokidagi soʻzlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

**Didaktik materiallar:** rasmi va boʻgʻinli kartochkalar, kesma harflar , qish tasviri

### Darsning borishi:

#### I.Kirish qismi (5 daqiqa)

##### Faollashtirish mashqi:

Kalendar : Oʻquvchilardan bugungi kun sanasi soʻraladi.

Boʻgʻinlarni yozamiz mashqi: Oʻqituvchi boʻgʻinlarni aytishini oʻquvchilar esa ularni kesma harflari yordamida tuzishlarini soʻraydi.

*-Bugun siz bilan "Boʻgʻinlarni yozamiz" mashqini oʻtkazamiz. Men boʻgʻinlarni oʻqiyman siz esa ularni kesma harflaringiz bilan yozing.*

#### Asosiy qism (40 daqiqa)

##### 1.Amaliy topshiriq bajarish: (10 daqiqa)

**Darslikda berilgan rasm asosida soʻz tahtili chizmasi birgalikda tuziladi.**

Rasmdagi bogʻliqlik haqida suhbatlashiladi. Ular orasidan bitta soʻzni tanlab olib uning chizmasi rangli kataklar yordamida hosil qilinadi.

shoir- 2 boʻgʻin , 1- boʻgʻin –sho, 2-bogʻin –ir,  
chizmada



Qolgan soʻzlar qatorlarga boʻlingan holda bajarish tavsiya etiladi. Unda oʻquvchilar berilgan soʻzning chizmasini chizadilar . Har bir qatordan vakil chiqib doskada chizmani chizadi qolgan oʻquvchilar tekshirib oladilar:

1-qator: shom

2-qator: sham

3-qator: bosh

##### Darslik bilan ishlash: (20 daqiqa)

**Harflar tasmasidan oʻtilgan harflar esga olinadi.**

Oʻxshash boʻgʻinli soʻzlarni oʻqilishi va soʻzlar maʼnolari tushuntiriladi.

shim, shi -mol



sahifasini shu dars beti rasmi

Darslikda berilgan bo'g'in va so'zlar o'quvchilarga navbat bilan o'qitiladi. So'zlar ko'rsatkich bo'ylab o'qitiladi. Hosil bo'lgan so'zlar muhokama qilinadi.

Alisher Navoiy haqida suhbat uyushtiriladi. O'qishni biladigan o'quvchilarga Alisher Navoiy haqidagi matn o'qitiladi.


Buyuk shoir Alisher Navoiy Hirot shahrida tug'ilgan. Alisher bolaligidan she'rlar yoza boshlagan. Shoir o'z she'rlarida Vatanni sevishga, mehr-oqibatli bo'lishga chorlagan.

Rasmlarning birinchi harfidan so'z yasaladi.(sharbat, shotut)




**Daftar bilan ishlash: (10 daqiqa)**

1. Topishmoqni o'qing va javobini yozing .(sham)
2. Akmal bilan birga bo'g'inlarni yozing. Ochiq bo'g'inlarni qizil, yopiq bo'g'inlarni ko'krangga bo'yang.



3. Gaplarni namunaga qarab yozing.



**Darsga yakun yasash:**

**Refleksiya mashqi:**

**Menga ... qiziq bo'ldi.**

**Men ... bilib oldim.**